

**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLALARNING PSIXIK VA NUTQIY RIVOJLANISHI.**

**ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi  
Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi  
ADPI talabasi Shaxobova Zamira.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yosh davrida bolaning psixik va nutqiy rivojlanishi, bolaning psixik tomonlama rivojlanishi va bola “men” ning shakllanishi, bolalar bilan pedagogik ishlar olib borilayotganda ularni ko‘proq rag‘batlantirish, Maktabgacha yosh davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jihatdan talaffuziga e‘tibor haqida fikrlar ilgari surilgan

**Kalit so‘z:** Psixika, nutqiy rivojlanish, ontogenez, ixtiyoriy esda qoldirish, o‘z-o‘ziga baho berishi, ijtimoiy institutlar

“Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davr maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri 3 ta davrdan:

- Kichik maktabgacha yosh davri.
- O‘rta maktabgacha yosh davri.
- Katta maktabgacha yosh davridan iborat” [1.]

Maktabgacha yosh davrida birinchi davr 3 - 4 yosh oralig‘ida bo‘lib bola emotsional jihatdan o‘zini - o‘zi boshqarishni mustahkamlashi bilan bog‘liqdir.

Ikkinchi davr 4 - 5 yoshni tashkil qilib davrda bola ahloqiy tomondan o‘zini-o‘zi boshqara olishidir.

Uchinchi davr 5 - 6 - 7 yosh oralig‘ida bo‘lib yosh davr bu davrda shaxsiy ishchanlik va bola nutqining to‘la to‘kis rivojlanib bo‘lganligini ko‘ramiz.

“Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim hisoblanadi.”[ 1 ]. Kattalarning bolalar uchun bergan bahosi bolaning psixik tomonlama rivojlanishi va bola “men” ning shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarga maqtov, rag‘bat va ular bilan faxrlanish juda yoqadi. Bu yosh davrdagi bolalar bilan pedagogik ishlar olib borilayotganda ularni ko‘proq rag‘batlantirib turish maqsadga muvofiq. Ularga ko‘rsatilgan maqtov esa ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini yanada oshiradi. Ushbu yosh davrda bolalarda kuzatiladigan har xil inchiqliklar kattalarning fikricha bolaning o‘zini o‘zi tan oldirishga intilish deb yuritilsa N.A Menchinskaya V. S. Muxinalarning oqilona mulohazalariga qaraganda ushbu inchiqliklar ular shaxsiga adolatsiz noto‘g‘ri munosabatda bo‘lishdan iboratdir.

“Maktabgacha yoshdagi bolada ko‘proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyoriy esga tushirish ustunlik qiladi.”[2] Bola so‘zlarni ma‘nosini farqlamay tushunmay hech qanday ma‘nosiz takrorlayveradi. Ammo, keyinchalik kattalarning ta‘sirida ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlanib boradi.

Maktabgacha yosh davrda bo‘lgan bolalarning oilasida kuzatiladigan har xil urush-janjallar bolalarning ruhiyatiga, psixikasiga ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Tinimsiz uyda janjal bo‘ladigan bolalarda Ruhiiy rivojlanishi sustlashganlikning Psixogen turi uchraydi. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar har tomonlama bilish jarayonlari xayoli tafakkuri diqqati aqliy faoliyati o‘zlashtirishda o‘z tengdoshlaridan ancha orqada qolgan bo‘ladi. Bu yosh davrdagi bolalarda ruhiy rivojlanishlashganlikni kuzatmaslik uchun bolalarda oldida notinch masalalarni hal qilmaslik, urishmaslik lozim. Bu davrda bola o‘yin faoliyatida bo‘ladi ushbu o‘yinlar orqali bolaning layoqati qizishiqishlari namoyon bo‘lsa, bilish jarayonlari tafakkuri xayoli diqqati idroki va nutqi shakllanadi.

“Bola ulg‘ayay ekan unda so‘zlashishga ehtiyoj paydo bo‘la boshlaydi, - deydi Farahnoz Bekmurodova. Dastlab atrofdegilarni taniydi eshitgan so‘z va jummalarni asta-sekinlik bilan o‘zlashtiradi. Tilga kirgach esa uning so‘z boyligi jadal o‘sadi.”[4.1040 b.] Bolaning dialogik nutqi oilada ota-ona aka-opalari davrasida vujudga keladi. O‘ziga kerakli bo‘lgan narsalarni so‘rash uchun harakat, muloqotga kirishadi.

“Maktabgacha yosh davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jihatdan talaffuz oson talaffuz etiladigan lab-lab, lab-tish undoshlari - p, b, m, f, v, va boshqa tovushlarni to‘g‘ri talaffuzini

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

o’rganadilar. Artikulyatsion jihatdan talaffuz etish qiyin bo’lgan shivirlovchi sirg’aluvchi ( s, z, sh, j, ch, ) va sorsor ( l va r) Tovushlarini talaffuz qilishda qiynaladilar “[5.76b]. Shuning uchun talaffuz paytida ushbu tovushlardan foydalanishmaydi yoki notoliq qo’llaydilar. Ushbu yosh davrda bolalarda fonematik idrok shakllanib boradi ya’ni bola-o’z o’zi talaffuz qilayotgan tovushlarga e’tiborini qarata boshlaydi ularni noto’g’ri talaffuz qilayotgan bo’lsa to’g’ri talaffuz qilishga intiladi. Sog’lom bolada fonematik idrok 4 yoshda shakllanlanadi , 3 yoshli bolaning lug’at boyligi o’rtacha hisobda 100 ta so’zdan iborat bo’ladi.

" Bolaning 4 - 6 yoshida uning aktiv lug’ati 3000-4000 ta so’zgacha yetadi. lug’at boyligi bilan birgalikda bola nutqning grammatik tomoni ham rivojlanib boradi. " [ 6.76 bet ]

Bu yosh davrda bolalarning nutqiy tomonlarni orqada qolishining asosiy sababi deb bolalarning elektron vositalar telefon va televizorlarga bog’lanib qolganligini aytishimiz joiz. Ushbu elektron vositalar bolalarning nafaqat nutqiy tomonlarni balki bilish jarayonlaridan ham orqada qolishiga ta’sir ko’rsatmay qolmaydi. Shunday ekan bolalarning elektron vositalardan foydalanish vaqtini anchagina qisqartirish uning o’rniga esa bola nutqini bilish jarayonlarini aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi o’yinlarni o’ynatish lozim. Qisqa vaqt bo’lsa ham bola telefon yoki televizorda tomosha qilayotgan multfilmni ota yoki onasi u bilan birgalikda tomosha qilib uning tafakkurini xayolini nutqini diqqatini xotirasini rivojlantirishim mumkin. Bola bilmasa aytib o’rgatishi yoki multfilmda bo’layotgan hodisaning yomon tomoni bo’lsa uning yomon ekanligini bolaga tushuntirishi o’rnatilishi kerak.

Xulosa sifatida

Adabiyotlar ro’yhati.

1.Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiyasi Z.T.nishonova, N.G’.Kamilova, D.U. Abdullayeva T-2019

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish. Dursunov Sardor, Nigora Axtamova Tashkent Medical Academy Integrational of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions 2023 y. 6 may 1040 bet

3. Logopediya M.Y.Ayupova T - 2007 76 bet.

4. Logopediya M.Y.Ayupova T - 2007 76 bet.